O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

2.Malygina I.V “Etnomadaniy o‘ziga xoslik “(ontologiya, morfologiya, dinamika) Falsafa fanlar do‘ktiri Sci.M 2005

3. Mamatov M.M “Etnopsixologiya” -Toshkent, 2006

4.Phinney J. “O‘smirlarda etnik o‘ziga xoslik”, Tadqiqotlarni ko‘rib chiqish Psixologik axborotnoma//1990.(108)3.b

5. Romanova O.L. “Bolalar va o‘smirlarda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish “1994. 449-510b

SUHBATDOSHNI IDROK ETISHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Norbekova Barno Shavkatovna,
S. Mardonov
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning shakllanish jarayonida o‘zgalar bilan bo‘ladigan muloqotning ahamiyati va suhbatdoshni idrok etishdagi o‘ziga xos mexanizmlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Idrok, ijtimoiy persepsiya, muloqot, psixologiya, identifikatsiya, empatiya, refleksiya, stereotipizatsiya, muloqotning ahamiyati.

Insoniyat paydo bo‘libdiki bir birlari bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Muloqot jarayoni orqali munosabatga kirishib axbarot almashinadi. Hech shubha yo‘qki, hayotimiz davomida jamiyatning turli xil qatlamlariga oid kishilar bilan bevosita yoki bilvosita muloqot qilamiz. Muloqot mobaynida suhbatdoshimizni anglashga, uning hissiyotlariga ta'sir o‘tkazishga, uni biror maqsadga yo‘naltirishga harakat qilamiz. Ammo, doim ham ishimiz o‘xshayvermaydi. Bunga asosiy sabab, muloqot mobaynida o‘ziga xos texnikalardan ko‘p ham foydalanavermaymiz. Balki, biror bir so‘zlashuv texnikasining samarali ishlab berishiga ishonchsizlik bilan qaraymiz. Ammo, har narsaning sir-sinoati bo‘lgani kabi, suhbat jarayonida ham ma'lum bir qonuniyatlar amal qiladi. Ularni chuqur o‘rganish bilan suhbatdoshning ko‘ngliga yo‘l topishimiz mumkin bo‘ladi. Darhaqiqat, insoniyat antik davrlardan buyon "Qanday qilib kishilarga ta'sir o‘tkazish mumkin?", degan savolga ma'nili javob topishga qiziqib kelgan.

Inson shunday mo‘jizaki, u murakkab psixik jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo‘la oladi. Atrofida ro‘y berayotgan hodisalarni baholay oladi. Jumladan, inson tashqi muhitdan keladigan axborotlarni sezgisi bilan qabul qiladi. Turli xil sezgilarning ongda yaxlit obraz hosil qilishi esa idrok jarayonini yuzaga keltiradi. Qo‘zg‘atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan segilardan farqli o‘laroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiytlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig‘indisidan iborat tarzda emas, balki hissiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi [1]. Ammo, kishilarni idrok etish predmetlarni idrok etishdan ko‘ra ancha murakkab jarayondir. Chunki, kishining xulqi o‘zgaruvchan hisoblanib, har daqiqada o‘zgacha qiyofa kasb etishi mumkin. Suhbatdosh tarafidan kelayotgan

qo‘zg‘atuvchilar ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Predmetni idrok qilayotganda ko‘proq obyektiv nuqtayi nazardan baho beramiz.

Kishilarni idrok etayotganda esa obyektiv ma'lumotlarga qo‘shib, hissiy ma'lumotlarni ham qabul qilib olamiz. Bunday ma'lumotlarni yaxlit holatga jamlash anchayin murakkabligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham psixologiya fa'nida "muloqotning perseptiv tomoni" degan tushuncha paydo bo‘lgan.

Muloqotning perseptiv tomoni - kishini kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suhbatdosh bilan bo‘ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi. Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro‘y berishi ko‘p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotgani, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog‘liq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini o‘rganish zaruriyatini vujudga keltiradi. Insonning inson tomonidan idrok etilishi "ijtimoiy persepsiya" deyiladi. Muloqot jarayonida kamida ikki kishi ishtirok etadi. Kishining qiyofasi, xatti-harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g‘oyat muhimdir:

1. Identifikatsiya - inson o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

2. Empatiya - inson o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

3. Refleksiya - inson suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

4. Stereotipizatsiya - inson suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablonlardan foydalanishi [2].

Tepada suhbatdoshni idrok etishga yordam beradigan 4 xildagi o‘ziga xos mexanizmlar sanab o‘tildi. Albatta, "Ijtimoiy persepsiya" jarayonining mohiyatini ushbu 4 xildagi mexanizmlar orqali to‘liq ochib berish qiyin. Shunday bo‘lsada ushbu mexanizmlarning qanday ishlashini o‘rganish orqali kishilar o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish mumkin.

Identifikatsiya - lotincha "tenglashtirish, aynan o‘xshatish" degan ma'noni anglatadi. Bunda kishi o‘zini suhbatdoshining o‘rniga qo‘yib ko‘radi. Suhbatdoshiga ayni damdagi vaziyat qanday ta'sir o‘tkazayotganini hisobga oladi. O‘zini suhbatdoshiga nisbatan identifikatsiya qilib ko‘rish, ko‘pincha to‘g‘ri qaror qabul qilishga olib boradi. Masalan, do‘stingiz kechqurun tashkil etilayotgan bazmga kela olmasligini aytsa, boshlanishida sizda norozilik hissi paydo bo‘ladi. Ammo, o‘zingizni do‘stingiz o‘rniga qo‘yib ko‘rar ekansiz, undagi bazmni cheklashga olib kelayotgan sabablarni idrok etasiz. Shunda, do‘stingizga ham oson emasligini tushunasiz va unga rozilik nigohi bilan qaray boshlaysiz.

Empatiya - bu hamdardlik bildirish demakdir. Muloqot mobaynidagi hamdardlik bildira olish qobiliyati ham kishilardagi ijobiy munosabatlarning davomiyligini ta'minlaydi. Empatiya ko‘pincha hissiyotlar bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, bunda tinglovchi shaxs go‘yoki so‘zlovchi shaxsning ruhiy holatiga kirib oladi. Misol uchun, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga bir hikoya ayib berayotgan vaziyatni ko‘z oldingizga keltiring. O‘qituvchi kuyib-pishib ibratli hikoyasini so‘zlab tursayu, o‘quvchilar hech qanday emotsiya bilan javob qaytarmasa, qanday noqulay

hol bo‘ladi. Bunday paytda o‘quvchilar o‘qituvchidagi ruhiy holatni, hissiyotlarni o‘zlarida namoyon eta olishsa, empatiya mexanizmidan qoyilmaqom foydalangan bo‘lishadi. Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, bu kabi hamdardlik reaksiyasi me'yoridan oshib ketadigan bo‘lsa, kulguli vaziyat yuzaga kelib qolishi va so‘zlovchiga ruhiy zarba yetishi mumkin.

Refleksiya - lotincha "aks ettirish" demakdir. Bunda kishi o‘zini suhbatdoshi o‘rniga qo‘yib ko‘radi va suhbatdoshining pozitsiyasidan turib o‘ziga baho beradi. Ya'ni, kishi o‘ziga "Suhbatdoshim men haqimda qanday o‘ylayotgan ekan?", -degan savol bilan murojaat etadi. Go‘yoki, suhbatdoshi bir ko‘zgu bo‘lsa, o‘sha ko‘zguda o‘zini ko‘rishga, o‘zini aks ettirishga intiladi. Refleksiya qilib ko‘rish ham shaxslararo munosabatlarda samarali natijalarga olib keladi. Kimdir bilan ko‘rishib, uzoq vaqt gaplashib qolgan paytingiz, o‘zingizga "Suhbatdoshim men haqimda qanday o‘ylab boshladi ekan, axir uning ko‘p vaqtini olib qo‘yibmanku" deb murojaat etishingiz, darhol u bilan muloqotni to‘xtatib, uning vaqtini olib qo‘yganingiz uchun uzr aytishingizga sabab bo‘ladi. Suhbatdoshingiz ham tushunganingiz uchun minnatdor bo‘lib, siz bilan ochiq chehrada xayrlashadi.

Stereotipizatsiya - grekcha "o‘zgarishsiz, takrorlanish" degan ma'nolarni anglatadi. Bunda suhbatdoshni idrok etish jarayonida unga nisbatan avvaldan belgilab qo‘yilgan shablonlardan foydalaniladi. Bu kabi idrok etish ko‘pincha noto‘g‘ri xulosalar qabul qilishga olib keladi. Masalan, "A shaharning odamlari mehmonni xushlamas ekan", degan gap sizning ongingizda shablon sifatida o‘rnashib qolgan bo‘lsa, o‘sha shahar haqida sizda ko‘p taraflama xato fikrlar yuzaga kelib boshlaydi.

Bunday noto‘g‘ri idrokning kelib chiqmasligi uchun shablonlarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligiga juda qattiq ahamiyat berish lozim. Muloqotning ahamiyati to‘g‘risida. Qadimgi davrlarda ham kishilar o‘rtasidagi muloqotga katta e'tibor qaratilgan. Oratorlik sa'nati degan maxsus tushunchalar paydo bo‘lgan. Shu bilan birga muloqotning yo‘qolishi bilan bog‘liq jarayonlar oxir-oqibat qanday natijaga olib kelishiga ham qiziqishgan.

Odam yakka o‘zi qolganida, ko‘pincha, xayolidagi suhbatdoshlar bilan "o‘z ichida" gaplashadi. Odam o‘ziga notanish bo‘lgan bir yoki bir necha kishi o‘rtasiga tushib qolsa, unda nimalarnidir aytish yoki shu kishilardan nimalarnidir eshitish ehtiyoji albatta paydo bo‘ladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamda ma’yus qiladigan "o‘ng‘aysizlik" hissi tug‘iladi. Odamning "aytadigan hech bir gapi" bo‘lmagan taqdirda ham shunday ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bunday hollarda u "nima qilishini" bilmay qoladi. Bunday hollarda unda "nimani gapirsam ekan?", "nimadan gap boshlasam ekan?", "qanday gap boshlasam ekan?", deb gap mavzuini qidirish boshlanadi [3].

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash jarayonida har bir kishi bilimlarning ko‘p qismini boshqa kishilardan oladi. Nutq vositasida aloqa bog‘lash odamning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr almashuvga xizmat qiladi. Har bir kishining nutqi bolalik chog‘idan boshlab o‘sib boradi, buning sababi ham boshqa kishilar bilan aloqada bo‘lish ehtiyojidir [4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kishining jamiyat ichidagi sotsial hayotini muloqotsiz, nutqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kishi boshqa kishilar bilan muloqotga kirishar ekan, undagi psixik jarayonlar ham tobora yuksala boradi. Agar, o‘zgalar

bilan til vositasidagi munosabatlar bo‘lmaganda, yangi tug‘ilgan individ shaxs sifatida shakllanmagan bo‘lar edi. Yana bir e'tiborli jihat shuki, kishi so‘zlashuv texnikalaridan o‘z-o‘zini qaror toptirish vositasi sifatida foydalanishi qanchalik muhim bo‘lsa, xuddi shu muloqoti orqali o‘zgalarga ruhiy, psixik ziyon yetkazib qo‘ymaslikka erishishi ham shunchalik ahamiyatlidir. Ya'ni so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona, o‘z o‘rnida foydalanish o‘ta zaruriy jihatdir. So‘zlashuvdagi muvaffaqiyat bir tomondan so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona foydalanishga chambarchas bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan kishining individual xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ammo, bundan kishi suhbat texnikalarini yaxshi o‘zlashtirib olsa ham, muloqotdagi muvaffaqiyatga yetisha olmay qolishi mumkin, degan ma'no kelib chiqmaydi. Insonda qadimdan o‘zini qaror toptirish va o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj bor. Xuddi ana shu ehtijoy kishining muloqotdagi muvaffaqiyatini ham ta'minlab berishga qodirdir. Shu xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- insonlar bilan muloqot qilganda atrofidagi shaxslarga obyektiv nuqtayi nazardan baho berishsa;
- muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganiga bog‘liq ekanligini hisobga olishsa;
- muloqotda avvalgi kishilardan olingan tasavvurlarning ayni paytdagi vaziyatga nisbatan to‘g‘ri-noto‘g‘riligiga juda qattiq ahamiyat berishsa;
- muloqot jarayonida suhbatdoshni inson o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. 290-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019-yil.

2.Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. 44-46-bet. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent. 2006-yil.

3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. 192-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

4. Yunusjonova Z.S., Mirzayeva S.A., Bositxonova E.I. Psixologik parvarish. 51-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

DIQQAT KONSENTRATSIYASINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Sufxiddinov Sayfiddin Qahramon og‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada diqqat, diqqat funksiyasi, diqqat xususiyatlari, diqqat xossalari, diqqat hajmi, diqqat barqarorligi, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning ko‘chishi, diqqatning bo‘linishi, diqqatning jamlanishi, parishonxotirlik, parishonxotirlik turlari, diqqatning rivojlanishi va yosh davrlarida diqqatning darajasi to‘g‘risida so‘z boradi.